


TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-fevral oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5% o'sdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 26,7 foizni tashkil etdi va o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117,1 % ga o'sdi.

**2019 yil yanvar-fevral oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)**




2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari 116,6%, - 113,5% Chilonzor tumani 107,2%, Yakkasaroy tumani 117,4%, Sergeli tumani 109,2 % da qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda, jumladan, Shayxontoxur tumani 89,0 %, tumani 104,7% hamda Bektemir tumanlarida 101,6% nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 279,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 103,8 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 6,0% ni tashkil etdi.

Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi


(jamiga nisbatan foizda)



Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Sergeli tumani 14,1%, Yakkasaroy tumani 12,3%, Shayxontoxur tumani 10,9 %, Uchtepa tumani 10,7% Olmozor tumani 10,3 %, tashkil etgan bo'lsa,

Yashnobod tumani 3,2 % Bektemir tumani 5,2 % va Mirzo-Ulug'bek tumani 6,7% ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi
(jamiga nisbatan, foizda)



Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 26,7 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (16,9 foiz), Shayxontoxur tumani (10,4 foiz), Uchtepa tumani (7,0 foiz), va Yunusobod tumani (12,5 foiz) bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 936,4 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (7677,4 ming. so'm), hilonzor tumani (1848,2 ming. so'm), Yakkasaroy tumani (1242,6 ming. so'm), Mirobod tumani (1230,7 ming. so'm) Uchtepa (1001,7 ming. so'm), kuzatildi.




Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	1884,1	103,9
tumanlar:		
Uchtepa	1248,9	103,1
Bektemir	8170,1	98,9
Yunusobod	1781,3	114,6
Mirzo Ulug'bek	1205,1	112,1
Mirobod	3430,2	108,3
Shayxontoxur	1453,7	87,2
Olmazor	1035,4	98,6
Sergeli	1804,4	106,0
Yakkasaroy	3449,5	115,9
Yashnobod	1450,6	104,6
Chilonzor	3280,5	105,4


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(o'sish su'ratni o'tgan yilga nisbatan, foizda)



2018 yil yanvar-fevral oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 1884,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-fevral oyida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Yakkasaroy tumani 115,9%, Yunusobod tumani 112,1 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 108,3 %, Chilonzor tumani 105,4 %, va Mirobod tumani 108,3 % tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Shayxontoxur tumani (87,2%), Bektemir tumanida (98,9%) qayd etilgan.

**Kichik korxona va Mikrofirmalar ulushi
(jami chakana savdo aylanmasidan)**




Kichik korxona va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Uchtepa (36,8 %), Olmazor tumani (34,0%), Mirzo-Ulug'bek tumani (32,9%), Yunusobod tumani (28,6%). Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar ham bor, jumladan, Yakkasaroy tumani (17,7%), Bektemir tumani (24,5%), Chilonzor tumani (27,5%) hissasiga to'g'ri kelagan .


2019 yil yanvar-fevaral oylarida ulgurji savdo

2019 yil yanvar-fevral oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 4157,5 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 100,2 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar 3566,6 mlrd. so‘mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,7 %ni tashkil qildi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)




Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p ulushga ega tumanlarga Uchtepa tumani (98,7%), Shayxontoxur tumani (98,2%), Yunusobod tumani (91,7%) va Bektemir tumani (96,0%), eng past ulush esa Yakkasaroy tumanlariga (73,1%), Olmazor tumani (83,1 %) va Mirobod tumani (81,7%), to'g'ri kelgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi


(jamiga nisbatan foizda)

■ Uchtepa	■ Bektemir	■ Yunusobod	■ Mirzo-Ulug'bek
■ Mirobod	■ Shayxontoxur	■ Olmazor	■ Sergeli
■ Yakkasaroy	■ Yashnobod	■ Chilonzor	



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lган туманлар Yakkasaroy tumani 17,9 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 14,0 %, Yunusobod tumani 11,8 %, Mirobod tumani 10,7%, Olmazor tumani 9,9 % tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir туманлар ya'ni Bektemir tumani 1,4 %, Uchtepa tumani 4,9%, Sergeli tumani 5,1 %, Yashnobod tumani jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi jamiga nisbatan



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Yakkasaroy tumani 15,3%, Mirzo-Ulug'bek tumani 13,4 %, Yunusobod tumani 12,6 %, Mirobod tumani 10,2% Chilonzor tumani 10,2 %, hamda eng kam ko'satkichni Bektemir tumani 1,6% qayd etgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi.
Abdurayimov J.J
Tel: 230-88-20 (21)